

## MUNOSABAT

2020-yil 1-aprel kuni kun.uz da “O’zbekistonda yaratilgan preparat koronavirusni to’xtatishi ehtimoli mavjud – Fanlar akademiyasi tadqiqotchisi” nomli maqola chop etildi.

<https://kun.uz/63620508>

Maqola muallifi Naima Aliqulova hozirda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutida mustaqil-izlanuvchi sifatida ro’yxatdan o’tgan, uning asosiy joyi Islom akademiyasi akademik litseyi hisoblanadi. Raxima Ochilova O’zR FA O’simlik moddalari kimyosi institutida 2004 - 2006-yillarda laborant bo’lib ishlagan.

O’zR FA O’simlik moddalari kimyosi instituti ma’lumotiga ko’ra, maqolada keltirilgan “Quvatin” va “Noglyukin” biofaol moddalarining ipak qurti pillasidan ajratib olish texnologiyasi Institut xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu biofaol qo’shimchalar sport tibbiyoti uchun mo’ljallangan va hech qachon virusga qarshi ta’siri tekshirilmagan.

Shuningdek, “Siritsin” preparati diabet kasalligi uchun biofaol qo’shimcha sifatida ishlatilgan.

Ma’lumot o’rnida aytib o’tish lozimki, har bir yaratilgan dori vositasi belgilangan reglamentlar asosida sinovdan o’tkaziladi va u bilan bog’liq jarayonlar “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to’g’risida”gi (2016-yil 4-yanvar, O’RQ-399-son) Qonunga (<http://lex.uz/docs/2856464>) muvofiq amalga oshiriladi.

**O’zR FA Axborot xizmati.**